

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Ped.76.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

VAXABOVA NASIBA ABDULXAMIDOVNA

**TALABA QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING
PEDAGOGIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contente of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Vaxabova Nasiba Abdulxamidovna

Talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik mexanizmini
takomillashtirish 3

Vaxabova Nasiba Abdulxamidovna

Совершенствование педагогических механизмов подготовки студенток к
семейной жизни 23

Vaxabova Nasibaxon Abduxamidovna

Improving pedagogical mechanisms of preparing female students for family
life 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 50

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Ped.76.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

VAXABOVA NASIBA ABDULXAMIDOVNA

TALABA QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING
PEDAGOGIK MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Namangan – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2023.3. PhD/Ped2673 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (namdu.uz) hamda «Ziyonet» axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Akramov Xusnitdin Muxitdinovich
pedagogika fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Xujamberdiyeva Shaxnoza Kupaysinovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Solixo‘jayeva Dildora Abduraimovna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/04.06.2020.76.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 228-85-01; faks: (+99869) 228-85-02; Web-sayt: www.namdu.uz, e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 228-85-01.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil «___» _____ dagi _____ - raqamli reestr bayonnomasi).

T. Fayzullaev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, siyosiy fanlari doktori, professor

B.M.Abduraxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

O‘.M.Asqarova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (fan doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ta'lim oluvchilarni har tomonlama rivojlantirish, ularda ijobiy sifatlarni shakllantirish, o'z-o'ziga ishonchni tarkib toptirish va o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishda gender tenglikni ta'minlash, zamonaviy ta'lim sharoitida umuminsoniy va milliy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda hayotga tadbiiq etish alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha oilalarda ijtimoiy tajribani shakllantirishning modernizatsiyalashgan tarbiya tizimini ishlab chiqish; oila, maktab va mahallaning tarbiyaviy faoliyatga doir integratsiyasini ta'minlashning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish; bo'lajak oila, ota-onalar bilan ishlashga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish va noto'liq oilalarda tarbiyalangan yoshlarni ijtimoiy munosabatlarini rivojlantirish, oilada bolalarni o'zaro munosabatlarini shakllantirish imkoniyatlari, talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash va tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Dunyoning qator ilmiy tadqiqot markazlarida ilm-fan va jamiyatni rivojlantirishda ayollarning o'rni va rolini oshirish, yangi avlodni shakllantirish va rivojlantirish zaruriyatini anglagan holda ayollarning reproduktiv salomatligini ta'minlash, qizlar shaxsini shakllantirish jarayonining pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirish, ularning individual qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish borasida izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, qizlarda milliy fazilatlarini rivojlantirish tuzilmasi va komponentlarini aniqlashtirish, ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarkib toptirishning pedagogik tizimini ishlab chiqish zaruriyati belgilanmoqda. Shundan kelib chiqib, qadriyatli yondashuv asosida talaba qizlarni oilaviy munosabatlarni to'g'ri tashkil etish uchun zarur ijtimoiy ko'nikmalarni, shaxslararo muloqot va sog'lom turmush tarzi malakalarini, insonparvarlik, mas'uliyatlilik kabi sifatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini tug'diradi.

Respublikamizda oila jamiyatning asosiy bo'g'ini va davlat muhofazasida ekanligi Konstitutsiya bilan kafolatlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-3808-son Qarori¹ga muvofiq xalqaro "Oila kuni"ning nishonlanishi hamda oilaning ijtimoiy salohiyatini mustahkamlash, an'anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, oilaviy hayotga tayyorlik mezonlarini uzluksiz ta'lim mazmuniga singdirishga katta e'tibor qaratish belgilangan. Natijada, uzluksiz ta'limning har bir bo'g'inida ta'lim oluvchilarni baxtli oila modeli talablari va mezonlariga yo'naltirilgan pedagogik jarayonda oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-3808-son Qarori

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 2-fevraldagi 5325-son “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda “Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Konsepsiyasi², 2020-yil 10-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi «Mahalla va oila» ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi VM-367-sonli qarorlari, 2019-yil 31-dekabrda “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning amaldagi ijrosiga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda ta‘lim jarayonining turli bosqichlarida yoshlarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash, oila va uning vazifalari hamda shaxs rivojlanishidagi ijtimoiy ta‘sir imkoniyatlari A.Munavarov, O.Musurmonova, M.Quronov, R.Safarova, S.X.Tadjyeva, T.X.Xaydarov, Atadjanova, oilaviy munosabatlar, iqtisodiy, huquqiy, pedagogik-psixologik jihatlari E.To‘xtamurodov, N.Egamberdyeva, G.Yusupova, G.Xrulsova, M.Davletshin, G‘.Shoumarov, E.G‘oziyev, V.Karimova, A.Haydarov, G.X.Ibragimova, G.I.Maxmutova, Z.Nishonova, O‘.Asqarova, D.Madjidova, Yu.Shoamirova, D.G‘. G‘aniyev, D.X.Narzuqulova va D.Solixo‘jayevalar tadqiqotlarida asoslab berilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan V.Baydenko, A.Belyayeva, L.Suprunova, S.Troyanskaya, A.Sharov, Ya.Chicherina, A.V.Mudriklarning tadqiqot ishlarida o‘quvchilarda ma‘naviy madaniyatni shakllantirishning pedagogik omillari, ijtimoiy sifatlarni qaror toptirish modellari, diagnostik vositalari, psixologik-pedagogik xususiyatlari, o‘quvchi-qizlar shaxsini rivojlantirishning axloqiy, ijtimoiy-madaniy yo‘nalishlari tadqiq etilgan.

Xorijiy olimlaridan I.Y.Baytinger, L.Botcheva, F.Delamare, D.Tate, Nigel

² O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda “Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” Konsepsiyasi

Latta, Carol Tuttle, Emi Chua, Meg Meeker, Erin K. Washington tadqiqotlarida shaxs rivojining ma'naviy-axloqiy kompetensiya bilan o'zaro bog'liqligi, oilada bolalarni tarbiyalash istiqbollari, hayot davomida rivojlanishning psixologik-pedagogik jihatlari tadqiq etilgan.

Biroq, muammoga doir tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish asosida oila tarbiya tizimini ishlab chiqishning ilmiy asoslari fundamental tarzda yoritish, talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish muammosi doirasida maxsus tadqiqot ishlari olib borilmaganligi ushbu tadqiqot ishining dolzarbligini ta'kidlaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-yadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "O'qituvchilar tayyorlash: ta'lim-tarbiya muammolari va istiqbollari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy, pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish;

pedagogik-psixologik diagnostika asosida talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorgarligini baholash mezonlarini aniqlashtirish;

talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning funksional modelini ishlab chiqish;

talaba qizlarda oilaviy hayotga tayyorlashning madaniy-tarbiyaviy shart-sharoitlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obykti sifatida talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish jarayonlari belgilangan bo'lib, tajriba-sinov ishlarida Namangan davlat universiteti talaba qizlaridan, Qo'qon pedagogika instituti talabalaridan va Andijon davlat universiteti talaba qizlaridan, jami 362 nafar talaba qizlar respondentlar ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning mazmuni, shakl, metod, vosita va pedagogik-psixologik shart-sharoitlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tahlil, tashxis, suhbat, pedagogik kuzatuv, loyihalashtirish, modellashtirish, pedagogik tajriba-sinov, ma'lumotlarni umumlashtirish, qiyoslash, ekspert baholash, statistik ishlov berish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talaba qizlarni oilaga tayyorlashning ijtimoiy, pedagogik va psixologik determenantlari hamda komponentlari ta'lim maqsadlari va oila funksiyalarini o'zaro aksiologik qadriyatlar uyg'unligida tarbiyaviy ta'sir darajasini oshirishga xizmat qiluvchi integrativ muhitni tashkil etish orqali ochib berilgan;

Bell-Lankaster tizimi asosida talaba qizlarning oilaviy munosabatlarga qadriyatli yondashuvni singdiruvchi ta'limiy muhit samaradorligini ta'minlash

zamonaviy shaxs sifatleri (aktivlik, yetakchilik, ijodkorlik, innovatorlik, tashabbuskorlik) asosida takomillashtirilgan;

talaba qizlarning oilaga tayyorligini ijtimoiy va tarbiyaviy me'yorlarga asoslangan funksional model hamda ularni refleksiv faoliyatini rivojlantiruvchi "Oilaviy hayotga bir qadam" mobil ilova orqali baholash mezonlari (motivatsion, faoliyatga doir, kognitiv, refleksiv) asosida aniqlashga ustvorlik berilgan;

talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning funksional mexanizmi hamkorlikda o'qitish va amaliy didaktik mashg'ulotlarni loyihalashning amaliy topshiriqlar, interaktiv ta'lim, trening, mustaqil ta'lim shakllari va funksional tizimli vazifalarni kiritishga asoslangan pedagogik shart-sharoitlar orqali modernizatsiya qilingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish mezonlari va ko'rsatkichlari aniqlashtirilgan;

talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash uchun "Oilaviy hayotga bir qadam" nomli maxsus dasturi ishlab chiqilgan;

faoliyatga doir va emotsional-qadriyatga yo'naltirilgan komponentlari: (sog'lom turmush tarziga amal qilish, nikoh oldi omillariga e'tibor berish, qiyinchiliklarni mustaqil yengib o'tish va individual ravishda muammolarni hal etish, mehnat va ijodiy faoliyatga mas'uliyatli munosabat, tashabbuskorlik va tashkilotchilik ko'rsatkichlari empirik asoslangan;

talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan o'quv modullari mazmuni umuminsoniy va aksiologik qadriyatlarga asoslangan o'quv materiallari bilan boyitilgan holda interfaol o'quv muhitida o'qitishni amalga ishirishni ko'zda tutuvchi "Oila pedagogikasi" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi muammoga falsafiy, metodologik, metodik, psixologik va pedagogik yondashuvlarga hamda ma'naviyatni rivojlantirishga doir milliy tajriba, respublikamiz va chet ellik olimlar, shuningdek, qizlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash faoliyatini tashkil etishga doir tajribalarga asoslanganligi; tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi; tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor, shuningdek, sifat jihatidan ta'minlanganligi; tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati izlanishlar natijasida talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda hayotiy tajribani o'zlashtirish darajasini aniqlovchi mezonlarning ishlab chiqilganligi; talaba qizlarini oilaviy hayotga tayyor ko'rsatkichlarini pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishning modernizatsiyalashgan tarbiya tizimini asosiy yo'nalishlari va ijtimoiy-pedagogik parametrlari mazmuniga singdirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan pedagogik-psixologiya, oila pedagogika, oila psixologiyasi, ijtimoiy pedagogika kabi ixtisoslik va umumkasbiy fanlar bo'yicha

takomillashtirishda o'quv dasturlarini ishlab chiqish, bo'lajak pedagog-psixologning ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashga doir kompetensiyalarini aniqlashtirilganligi, oliy ta'limda, oilalarda tashkil etiladigan tarbiyaviy faoliyatni modernizatsiyalashning amaliy-texnologik tizimining takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonining pedagogik-psixologik determinantlari va komponentlari ta'lim maqsadlari va oila funksiyalarini o'zaro aksiologik qadriyatlar uyg'unligida tarbiyaviy ta'sir darajasini oshirishga xizmat qiluvchi integrativ muhitni tashkil etish orqali ochib berishga doir konseptual g'oya va takliflardan "Qalb – mehri" ayollar va ularning oilalarini ijtimoiy-huquqiy qo'llab-quvvatlash markazining 2021-yil 1-noyabrdan 2023-yil 30-aprelgacha Oliy majlis jamoat fondi tomonidan "Ayollarni tayziq va zo'ravonlikdan himoya qilish hamda gender tengligi to'g'risida"gi qonunlarning ijrosini bajarilishini targ'ib qilishning innovatsion usullari nomli grant loyiha doirasida foydalanilgan (Namangan viloyati "Qalb - Mehri" ayollar va ularning oilalarini ijtimoiy huquqiy qo'llab-quvvatlash markazining 2023-yil 20-noyabrdagi ma'lumotnomasi). Natijada, Pedagogika va psixologiya yo'nalishi talaba qizlarini ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash samaradorligini oshirishga erishilgan;

Bell-Lankaster tizimi asosida talaba qizlarning oilaviy munosabatlarga qadriyatli yondashuvni singdiruvchi ta'limiy muhit samaradorligini ta'minlash zamonaviy shaxs sifatlari (aktivlik, yetakchilik, ijodkorlik, innovatorlik, tashabbuskorlik) asosida takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalardan 2022-2023 yillarda bajarilgan 02-01/33-raqamli Xalq deputatlari Namangan viloyat Kengashi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash Jamoat fondining "Xotin-qizlarning asosiy hayotiy qadriyatlariga erishish yo'llarining sotsiologik tadqiqi" nomli grant loyihasi doirasida foydalanilgan. (O'zbekiston ayollar va qizlar uyushmasi Namangan viloyati bo'limining 2023-yil 15-noyabrdagi 17-sonli ma'lumotnomasi). Natijada hamkorlik pedagogikasining konseptual g'oyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etishni takomillashtirishga erishilgan;

talaba qizlarning oilaviy hayotga tayyorgarligini ijtimoiy va tarbiyaviy me'yorlarga asoslangan funksional model hamda ularning reflektiv faoliyatini rivojlantiruvchi "Oilaviy hayotga bir qadam" mobil ilova orqali baholash mezonlari (motivatsion, faoliyatga doir, kognitiv, reflektiv) asosida aniqlashga ustvorlik berishga oid taklif va tavsiyalaridan "Intellekt" mintaqaviy tadqiqotlar markazi tomonidan 2022-yil iyun-dekabr oylarida bajarilgan "Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash: muammo – tahlil – yechim" nomli grant loyihasini bajarishda foydalanilgan ("Intellekt" Namangan viloyati mintaqaviy tadqiqotlar markazining 2023-yil 14-noyabrdagi № 8/23-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda korreksion-profilaktik chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga erishilgan;

talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning funksional mexanizmi

hamkorlikda o'qitish va amaliy didaktik mashg'ulotlarni loyihalashning amaliy topshiriqlar, interaktiv ta'lim, trening, mustaqil ta'lim shakllari va funksional tizimli vazifalarni kiritishga asoslangan pedagogik shart-sharoitlar orqali modernizatsiyalashga doir taklif va tavsiyalardan Oliy ta'limning 5110900 – Pedagogika-psixologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun "Oila pedagogikasi" nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yilning 29-maydagi 232-sonli nashr ruxsatnomasi). Natijada, pedagogika-psixologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun ilmiy metodologik adabiyotlar ta'minoti hamda uni mazmunan boyitishiga, shuningdek, talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash samaradorligini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot doirasida qo'lga kiritilgan ilmiy natijalar, 7 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkaziladi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy-uslubiy ishlar, shu jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda (shundan 1 ta Scopus) chop etildi.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 125 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlanib, Talaba qizlarini oilaviy hayotga tayyorlash – ijtimoiy ehtiyoj va pedagogik muammo ekanligi, talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik o'ziga xos xususiyatlari, xorijiy tajribalarga tizimli yondashuv asosida muammoning bugungi kundagi holati o'rganilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda oilalar, xotin-qizlar va bolalar huquq va manfaatlarini xalqaro huquqiy me'yorlar doirasida himoya etilishini ta'minlash maqsadida qator xalqaro huquqiy hujjatlarni ratifikatsiya qildi. Oilaning manfaatlarini ta'minlash, madaniy, maishiy turmush sharoitini yaxshilash, oilaning ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish, kam ta'minlangan, ko'p bolali, boquvchisini yo'qotgan va nochor oilalarni, nogironlarni, yetim, yolg'iz keksalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar butun dunyo

xalqlarining diqqat-e'tiborida bo'lmoqda.

Oila – jamiyatning ajralmas bo'lagi. Biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo'qki, u o'zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarini inobatga olmagan bo'lsa. Har qanday istiqbol oilaning manfaatlaridan ayro tasavvur qilinmaydi. Zero, har bir inson uchun oila – bu umrning boshlanishi, barcha narsalarning muqaddimasidir. Qolaversa, har bir inson o'z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan bog'laydi, ya'ni, o'z uyi, oilasida baxtli bo'lgan insongina o'zini to'laqonli baxtiyor his etadi.

M.Abdullayeva “Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayoni murakkab, serqirra va uzluksiz” ekanligini ta'kidlaydi. U o'smirlarni oilaviy hayotga ma'naviy-ruhiy jihatdan tayyorlashda maktablarda o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash haqida ilmiy-pedagogik targ'ibot ishlarining samaradorligini oshirish kerak deb alohida ta'kidlaydi.

Pedagogik-psixologik adabiyotlar tahlili asosida talaba qizlarini oilaviy hayotga tayyorlash maqsadida pedagogik ta'sirni maqsadli amalga oshirish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkinligi asoslandi:

1. Talaba qizlarning oila yuksak qadriyat ekanligi, jamiyat tayanchi sifatida huquqiy jihatdan muhofaza qilinishi to'g'risidagi yaxlit tasavvurlari rivojlanadi.

2. Talaba qizlarning oila qurishning kelajak hayot uchun muhim maskan va muhit ekanligini anglagan holda shaxslararo munosabatlarda “bir-birini tushunish, tinglash” kabi ijtimoiy ko'nikmalarni egallashga motivatsiyasi oshadi.

3. Talaba qizlar oilaviy hayot uchun zarur bo'lgan reproduktiv madaniyatning mohiyatini tushungan holda o'z salomatligini nazorat qilishga ongli yondashishga odatlanadilar.

4. Talab qizlar o'rtasida kelajakda jinsiy munosabatlar, keyinchalik esa oilaviy hayot bilan bog'liq huquqbuzarlik holatlari va turli jinoyatlar sodir etilishining oldi olinadi.

Pedagogika fanida “Oilaning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatining ijtimoiy-madaniy darajasi” degan tushuncha keng qo'llaniladi, unda ota-onaning nimalarga egaligi va o'z farzandiga nimalarni bera olishi, uning qanday manfaatni ko'zlab bu harakatni amalga oshirishi tushuniladi. Bunday darajaning quyidagi elementlari mavjud:

- ota-onaning savodxonligi;
- ota-onaning ma'naviy-axloqiy madaniyati va uni yuzaga chiqishi;
- oilaviy hayotda va bola tarbiyasida ota-ona tomonidan amal qilinadigan diniy va madaniy an'analar va qadriyatlar;
- oilaviy bo'sh vaqtni tashkil etish madaniyati.

Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida oila, mahalla, ta'lim va tibbiy muassasalar, davlat va nodavlat tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik asosida tashkil etiladigan faoliyat muvaffaqiyati quyidagi tamoyillarga amal qilingan sharoitda ta'minlandi:

1. Oilada qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonining ishtirokchilari bo'lgan subyektlar faoliyatidagi maqsad birligi hamda ular imkoniyatlarining yagona maqsad sari yo'naltirilganligi.

2. Mazkur subyektlar tomonidan olib borilayotgan faoliyat mazmunining g'oyaviyligi hamda ilmiy dalillar bilan boyitilganligi.

3. Nazariy bilimlarni berishga qaratilgan tadbirlar mazmunidan amaliy faoliyat ko'nikma va malakalarni hosil qiluvchi metodlarning o'rin olishi.

4. Oila muhitida qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan faoliyatning tizimli, uzviy hamda maqsadga muvofiq tashkil etilishi.

5. Oila muhitida qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida qizlarning yosh, psixologik, fiziologik hamda individual hususiyatlarini inobatga olish.

6. Oilada qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida muayyan subyektlar faoliyatini o'zaro uyg'unlashtira olish va mazkur faoliyatlarni ularning mazmuniga ko'ra qo'llab-quvvatlanishi hamda rag'batlantirilishiga erishish.

7. Oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash borasida joylarda qo'lga kiritilgan yutuq va tajribalarni ommalashtirish.

Talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda oilaning funksiyalarini psixologik xususiyatlarini o'zaro aloqadorligini ta'minlash asosida psixologik shart-sharoitlari kengaytiriladi. Oilaning ijtimoiy-funksiyalari haqida gapirganda bir tomondan jamiyatning oilaga ta'sirini, ikkinchi tomondan esa, umumiy-ijtimoiy tizimda oilaning o'rnini, oilaning hal qiladigan ijtimoiy-funksiyalarini hisobga olish lozim.

Oila quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

- iqtisodiy;
- reproduktiv;
- tarbiyaviy;
- rekreativ;
- kommunikativ;
- regulyativ (boshqaruv).

Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida oila va jamoatchilik o'rtasida ijodiy hamkorlikni qaror toptirishdan ko'zlangan maqsad - qizlarga oilaviy hayotni tashkil etish, oilada sog'lom muhitni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari haqida ma'lumotlar berish, ularda oilaviy munosabatlarni tashkil etish hamda oila xo'jaligini yuritish borasida muayyan amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilish, bu yo'lda oilaga nazariy va amaliy jihatdan yordam ko'rsatish, oilani har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan iboratdir. Bizning nazarimizda, qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasidagi oila va jamoatchilik hamkorligini quyidagi yo'nalishlarda olib borish so'z yuritilayotgan muammoning ijobiy yechimga ega bo'lishini ta'minlaydi:

1. Oilada qizlar tarbiyasini tashkil etish, ularda ijtimoiy-g'oyaviy, axloqiy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik, estetik, gigiyenik hamda sog'liqni saqlash borasidagi nazariy bilimlarni oshirish, shuningdek, amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish imkonini beruvchi manbaalar bilan ta'minlash, uslubiy yordam ko'rsatish.

2. Muayyan masalalarda mutaxassis maslahati hamda amaliy yordami (masalan, huquqshunos, psixolog, pedagog, iqtisodchi hamda tibbiyot xodimlari tomonidan ko'rsatiladigan ko'mak)ni uyushtirish.

3. Ota-onalar ishtirokida qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammolariga bag'ishlangan suhbat, uchrashuv, seminar, ma'ruza va bahs-munozaralarni tashkil etish.

4. Qizlarda zukkolik, donolik, chaqqonlik, uddaburonlik, tashabbuskorlik kabi hislatlar, shuningdek, nafosat his tuyg'ularini tarbiyalashga yordam beruvchi turli tanlovlarni o'tkazish.

5. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasidagi ilg'or tajribalarni ommalashtirish.

Mavjud manbalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, subyektiv, obyektiv omillarning mavjudligi hamda ulardan tadqiq etilayotgan muammoning ijobiy yechimini ta'minlash yo'lida foydalanish darajasi nafaqat oila, mahalla, ta'lim va tibbiy muassasalar, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, keng jamoatchilik imkoniyatlarini ma'lum nuqtada to'plash uchun zamin hozirlab qolmasdan, balki sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish, ularning aqliy va jismoniy salohiyatlari evaziga muayyan jamiyatning porloq istiqbolining yaratilishiga olib keldi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari”** deb nomlanib, ushbu bobda talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik funksional-tizimli modeli, oilaviy hayotga tayyorlashning asosiy yo'nalishlari va samarali omillari, talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda hamkorlikka asoslangan mexanizmlari va amalga oshirish bosqichlarini yoritib berilgan.

Oliy o'quv yurti talaba qizlarini oilaviy hayotga tayyorlash o'zida tarbiyaviy, didaktik va boshqa imkoniyatlarni mujassam qilgan, ko'p tarmoqli pedagogik jarayondir. Uning asosiy vazifalari sirasiga ta'lim, tarbiya, rivojlantirish, oilaviy hayotga psixologik tayyorlash va o'zini-o'zi yanada rivojlantirish kabilar kiradi.

Tadqiqot yuzasidan ishlab chiqilgan model – bu nazariy konstrukt bo'lib o'z ichiga qadriy va ilmiy asosni va pedagogik texnologiyalar to'plamini olgan, shuningdek, tarbiyaviy tizim bilan o'zaro bog'langan va hozirgi holatini to'ldirib shu orqali ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi.

Modelning maqsadi talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashga asoslangan. Modelda keltirilgan komponentlar o'zaro bir-biri bilan mustahkam aloqadorlikka ega bo'lib, talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashga xizmat qiladi. Shunga ko'ra, quyida mazkur komponentlarning mohiyati talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning tizimli-funksional modeli mazmuni yoritilgan.

Oilaviy qadriyatlar shakllanish jarayoni o'z ichiga quyidagi funksional komponentlarni qamrab oladi:

Ijtimoiy komponent: talabani jamiyatda oilaviy hayot subyekti sifatida ko'rilishi aspekti va oilaviy madaniyat shakllanish jihatlarini aks etadi.

Psixologik-pedagogik komponent: bo'lajak mutaxassisning kompetentligi shakllanishini ta'minlaydi, turli xil uslublar va texnologiyalarni bilishi, xulq-atvor va o'zaro munosabatlar motivlarini aniqlashga yordam beradi.

Professional-pedagogik komponent talabani pedagogik faoliyat subyekti sifatida ko'rilishini ta'minlaydi va bu bo'lajak o'qituvchining oilaviy hayotga tayyorlanishiga yo'nalgan.

Shaxsiy-o'zgartiruvchi komponent: talabani oilaviy hayot va kasbiy faoliyat subyekti sifatida yo'naltiradi. Funksional komponentlarning turg'unligi tizimli komponentlar bilan bog'liqligi bilan belgilanadi.

Motivatsion-qadriy komponent talaba qizlar mutaxassisining professional va oilaviy-qadriy yo'nalishlarini o'z ichiga oladi va bu oilaviy hayotga munosabatni shakllantiradi. Komponent oilaviy-qadriy yo'nalishlarning shakllanganligi, oilaviy tarbiya muammolarga qiziqishning borligi, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash ijtimoiy buyurtma bajarilishi orqali ta'riflanadi.



1-rasm. Talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik tizimli-funksional modeli

Rivojlantiruvchi komponent bo'lajak mutaxassisning oilaviy qadriyatlar shakllanishi uchun nazariy asosni yaratadi. Talabalarni tayyorlashda bilimlar integratsiyalanishi lozim: ijtimoiy va oilaviy psixologiya, etnopedagogika, shuningdek ta'lim-tarbiyaviy jarayonga bilimlar tizimini kiritishga pedagogik bilimlar sindirishga yordam beradi.

Ma'naviy-axloqiy komponent pedagog va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga asoslangan axloqiy yo'naltirilgan xulq modelini ochib beradi. O'z o'rnida bu oilaviy muloqot uchun muhim, o'zini tutish madaniyati, muloqot va


tashqi ko‘rinish madaniyati shakllanadi, bir biriga tolerantlik munosabatlari shakllanadi.

Xulq-atvor komponenti o‘z ichiga amaliy bilimlarni oladi va oilani xo‘jalik-iqtisodiy vazifalari bajarilishini ta‘minlaydi, uning iqtisodiy talablari qondirishini ta‘minlaydi, shuningdek talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash uchun o‘qituvchining professional-pedagogik faoliyatida yetarli bilimlarga egaligini anglatadi.

Jarayon komponentlari o‘zaro mustahkam aloqadadir va pedagogik oliy o‘quv yurtlari talabalarida oilaviy qadriyatlarning dinamik tizimi rivojlanishi o‘z ichiga oladi.

Tadqiqotning oldingi qismida ta‘kidlanganidek, oila, uning tuzilishi, oilaviy qadriyatlar shakllanish jarayoni ko‘p omilli hodisa bo‘lib, ijtimoiy (tashqi) muhit va ichki oilaviy xususiy omillar bilan bog‘liq. Ular o‘z ichiga oilaviy munosabatlar qadriyatlari, shu bilan oila institutini turli xil siyosiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlarga bo‘lgan munosabatni bildiradi. Talaba qizlar oila rivojlanishining dunyoviy tendensiyalari, o‘z xalqi an‘analarini qamrab oladi, shuningdek o‘z ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va demografik o‘ziga xosliklariga ega. Ayniqsa oilaning tarbiyaviy omillari, ma‘naviy, madaniy va oila qadriyatlari shakllanishi juda ham muhim hisoblanadi.

Ta‘lim muhitida oilaviy hayotga qadriyatli munosabatni shakllantirish jarayoni o‘z ichiga 3 bosqichni qamrab oladi (2-rasmga qarang):



2-rasm. Ta‘lim muhitida oilaviy hayotga qadriy munosabatni shakllantirish bosqichlari

Talaba qizlarning faoliyatini kuzatish, ijtimoiy maqomi, ruhiy xususiyatlarini o‘rganish, shuningdek, kundalik faoliyatlarini kuzatish natijasida quyidagi shakl, metod va vositalar ular o‘rtasida oila va oilaviy hayot to‘g‘risidagi nazariy hamda amaliy bilimlarni samarali targ‘ib etishga yordam bera olishi aniqlandi (1-jadvalga qarang)

1-jadval

Talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari

Talaba qizlar oilaviy hayotga tayyorgarligi faoliyat shakllari:	Talaba qizlar oilaviy hayotga tayyorgarligi faoliyat metodlari:	Talaba qizlar oilaviy hayotga tayyorgarligi faoliyat vositalari:
<ul style="list-style-type: none"> – suhbat; – uchrashuv; – savol-javob; – mini ma’ruza; – binar ma’ruza – bellashuv; – bahs-munozara; – debat; – trening. 	<ul style="list-style-type: none"> – og’zaki bayon qilish, tushuntirish; – namuna ko’rsatish; – ko’rsatmali namoyish etish; – amaliy mashg’ulotlar. 	<ul style="list-style-type: none"> – nutq; – namuna ko’rsatish ; – o’zaro muloqot; – oila va oilaviy hayot to’g’risidagi ma’lumotlar; – maxsus va badiiy adabiyotlar, o’quv manbalari; – ommaviy axborot vositalari xizmati; – texnik vositalar.

Shunday qilib, talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash tizimining shakllari, usullari, vositalari va amalga oshirish funksiyalarining o’zaro bir-biriga mustahkam aloqadorligini saqlab qolgan holda amalga oshirish, oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik mexanizmini oilaviy qadriyatlarlar, oilaviy munosabatlar, oilaning vazifalarini inobatga olgan holda tizimlashtirish, bunda mahalla, jamoalarni birgalikda hamkorlikdagi harakatlari yaxshi natijalarga olib keladi.

2-jadval

Talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda hamkorlikdagi faoliyatning pedagogik mexanizmi

Talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda hamkorlikdagi faoliyatning pedagogik mexanizmi



<p>Maqsad: Talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida asosiy subyektlar (o’qituvchi, psixolog, tibbiyot xodimi, ota-onalar, mahalla) o’rtasida integratsiyalashgan hamkorlik asosida pedagogik ta’minotni yaratish va bu faoliyatni samarali tashkil etish.</p>	
<p>Pedagogik mexanizmning asosiy tarkibiy qismlari:</p>	
Tarkibiy qism	Tavsif
Subyektlar	O’qituvchi, psixolog, tibbiy xodim, ota-onalar, mahalla (MFY, IIB, xotin-qizlar qo’mitasi)
Faoliyat shakllari	Seminarlar, treninglar, davra suhbatlari, rolli o’yinlar, konsultatsiyalar, nazorat tadbirlari
Hamkorlik yo’nalishlari	Ma’naviy-axloqiy, psixologik, sog’lom turmush, huquqiy savodxonlik, reproduktiv salomatlik

Metodik ta'minot	O'quv-modullar, elektron resurslar, amaliy mashg'ulotlar, tavsiyalar, so'rovnomalar, monitoring
Darajalari:	Yuqori, o'rta, past
Natija:	Oilaviy hayotga tayyorlashning hamkorlikdagi faoliyatini integratsiyalash jarayonining pedagogik ta'minoti kengaytirildi



Mexanizmning bosqichlari:	
Bosqich	Mazmuni
Tahlil bosqichi	Talabalarning tayyorgarlik darajasi, mavjud muammo va ehtiyojlarni aniqlash (so'rovnoma, suhbat)
Rejalashtirish	Subyektlar bilan o'zaro kelishilgan holda ish rejasi, taqvim, mas'uliyat taqsimoti ishlab chiqiladi
Hamkorlik monitoringi	Har bir subyekt faoliyati bo'yicha oraliq natijalar tahlil qilinadi, muammolar aniqlanadi
Metodik ta'minot	O'quv-modullar, elektron resurslar, amaliy mashg'ulotlar, tavsiyalar, so'rovnomalar, monitoring
Baholash va takomillashtirish	Yakuniy baholash, samaradorlik tahlili, takliflar, qayta rejalashtirish, modulga o'zgartirish kiritish
Kutilayotgan natijalar	Talaba qizlarning oilaviy hayotga nisbatan ijobiy, ongli munosabati shakllandi. Hamkorlikda faoliyat yurituvchi barqaror pedagogik tizim samaradorligiga erishildi.

Subyektlararo aloqalar izchil yo'lga qo'yilib, institutsional darajaga ko'tariladi. Ya'ni, ishlar tashkiliy–huquqiy asosda, aniq qoidalar va mexanizmlar bilan, doimiy ravishda bosqichma- bosqich amalga oshirildi, bir martalik yoki shaxsiy tashabbus emas, balki muassasa tomonidan yo'lga qo'yilgan barqaror tizimga aylandi. Ta'lim muassasasida o'qituvchi, psixolog, tibbiy xodim, mahalla faollari va ota-onalar o'rtasida doimiy hamkorlik tizimi shakllantiriladi. Ushbu hamkorlik talaba qizlarning har tomonlama qo'llab-quvvatlanishini, ularning ijtimoiy–psixologik rivoji, sog'ligi va xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Natijada barcha hamkor subyektlar bir yo'nalishda faoliyat yuritib, talaba qizlarni ongli ravishda oilaviy hayotga tayyor, mas'uliyatli va barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishga zamin yaratadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha pedagogik-amaliy samaradorligi”** deb nomlanib, tajriba sinov ishlarining maqsad, vazifalari va o'tkazish tartibi, tajriba-sinov natijalarining matematik-statistik tahlili yoritilgan bo'lib, tajriba sinov ishlarining samaradorlik darajasi asoslab berilgan.

Tadqiqot davomida nikohga qiziqishsiz va ishonchsizlik bilan munosabatda

bo'lgan qizlar o'rtasida oila ahamiyati va qadriyati ko'tarilganligi sezildi. Talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash munosabat-ishonch, qo'llab-quvvatlash, o'zaro tushunish, anglangan xarakter kasb eta boshladi, talabalar nafaqat buni ahamiyatini tushundilar, balkim unga emotsional, kommunikativ va faol sohalarda yetishish bo'yicha bilim va ko'nikmalaraga ega bo'ldilar. Yoshlarda oila, erkaklar va ayollarning o'ziga xosliklari, ota va ona roli, oila a'zolari funksiyalari, oilaga o'zgacha munosabat, uy xo'jaligi va mehnat haqidagi bilimlari va tasavvurlari kengayganligi sezildi. Yana bir jihatni ta'kidlab o'tish lozimki, taklif etilgan model invariant tarkibiy asoslarga ega bo'lib, barcha bosqichlarda uni oilaning o'ziga xosliklari (tarkibi, ijtimoiy holati, tarbiyaviy imkoniyatlari, diniy mansubligi) bilan bog'liqlikda amalga oshirilishi mumkin. Va nihoyat talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash hamkorligining pedagogik ta'minoti samaradorligini baholash mezonlari ishlab chiqildi (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash hamkorligining pedagogik ta'minoti samaradorligini baholash mezonlari

Bosqichlari	Mezonlar
Motivatsion	Hamkorlik - ta'lim jarayoniga ijobiy-emotsional munosabati, talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash hamkorligining pedagogik ta'minoti samaradorligini baholash mezonlari
Kommunikativ-faoliyatga doir	o'qituvchilar, tibbiy xodim vakili, psixolog va oila, Mahallalarning o'zaro tarbiyaviy imkoniyatlarini birlashtira olishi; hamkorlikda ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishi; ta'lim jarayonidagi oila ijtimoiy-madaniy muhit bilan bog'liqlikda pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish
Kognitiv	Nazariy va metodik bilimlarning to'liqligi; Oliy ta'lim va o'qituvchilar, tibbiy xodim vakili, psixolog va oila, Mahallalarning o'zaro hamkorlik tizimi haqida tasavvurlarning shakllanganligi va rejalashtirish
Refleksiv	Ta'lim amaliyotini tahlil etish, pedagogik muammolarni anglash, qiyinchiliklarni bartaraf etishga doir pedagogik faoliyatni loyihalashtirish, pedagogik maqsad va vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish, maktab va noto'liq oilalarining ta'lim-tarbiya jarayonida yo'l qo'yadigan xatolarining anglashi; refleksiv qadamlar ketma-ketligini aniqlashtirish

